

**ABDULLA ORIPOVNING “JANNATGA YO’L” DOSTONIDAGI
OBRAZLARDA YOZUVCHI FANTAZIYASI VA BADIY TO’QIMA**

Xolliyeva Kamola Panjiyevna
Termiz davlat pedagogika ainstituti 2-kurs magistranti
+998994280118

Annotatsiya: O’zbekiston qahramoni, o’zbek xalqining sevimli shoiri Abdulla Oripov o’zining “Jannatga yo’l” dostoni orqali shoir narigi dunyo timsolida jamiyatdagi illatlarni katta mahorat bilan ochib bergan. Shoir yashagan zamon ijodkorni qiyayotgan muammolarni to’g’ridan to’g’ri ochib berishga yo’l qo’ymas edi. Shuning uchun ham muallif eng kichik qahramonlar zimmasiga ham katta g’oyaviy og’irlik tashlagan va ular yo’liqadigan muammlolarga go’zal falsafiy yechimlar topib bera olgan. Ushbu maqolada e’tirof etilgan g’oylarning dostondagi talqini haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar. Abdulla Oripov, “Jannatga yo’l”, badiiy to’qima, “lirk men” yigit obrazi, tarozibon obrazi , ota obrazi , ona obrazi

KIRISH

Abdulla Oripovning “Jannatga yo’l” she’riy dostoni 1980-yilda nashr qilingan bo’lib, diniy mifologik va fantastik unsurlar asosida narigi dunyo timsolida yozilgan bo’lishiga qaramasdan, bugungi kunimiz, odamlar orasidagi munosabatlarni qamrab olgan. Har bir yaratilgan asar markazida borliq, inson turadi, u xoh ijobiy qahramon sifatida gavdalantirilsin, xoh salbiy qiyofada aks ettirilsin, buning farqi yo’q. Biz tevarak-atrofimizdagи voqeа-hodisalar, yaqinimizdagи insonlar bilan uzviy bog’langanmiz. Shoir dostonda yartga 15 ta katta va kichik qahramonlar timsolida insonning insoniy qiyofasi, o’zligini yo’qotishga olib boradigan illatlarni zo’r mahorat bilan qalamga olgan.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

“Fantaziya, xayol — hayotda inson tomonidan idrok etilmagan tasavvur va xayoliy xislatlarning vujudga kelishidan iborat psixik faoliyat. U insonning badihago’ylik qobiliyati, badiiy to’qimalarga ustaligi, topag’onligi, ixtiroga moyilligi, antiqa, aqlga to’g’ri kelmaydigan holatlarni ro’yobga chiqarishga uquvchanligi kabilarda namoyon bo’ladi.” Ayni shu ma’noda “Jannatga yo’l” dostoni bizni o’zimiz ko’rib guvoh bo’lmagan dunyoga va ruhiyatga olib kiradi. Ushbu dostonning boshdan oxir yozilish jarayonida ijodkorning keng fantaziyaga ega ekanligini sezish mumkin. Tanlangan qahramonlar zamondoshlarimiz o’laroq, ular mavjud bo’lgan joy va voqelik diniy qarashlar asosida muallif fantaziyasi bilan qorishib ketadi. Bir tomondan narigi dunyo majoziy ma’noda o’quvchini sergaklantirib, xushyor tortishga majbur qilsa,

ikkinchi tomondan muqaddas kitobimizda keltirilgan Oxir zamon , savol-javob qanday sodir bo’lishi – bu Yatarguvchining faqat o’zigagina ayon bo’lgan hodisa sifatida keltiriladi. Shu ma’noda “Jannatga yo’l” voqealarining rivojini to’liq holatda ijodkor fantaziysi deyish mumkin. Doston beshta ko’rinishdan iborat bo’lib, har bir ko’rinish avvalida ijodkor voqealar sodir bo’ladigan joyga kichik ta’riflar keltiradi.

BIRINCHI KO’RINISH

(Mahshar sahrosida g’ujg’on olomon. Tarozibon huzurida Yigit va o’zga odam)

IKKINCHI KO’RINISH

(Arosat yalangligida Yigit yolg’iz o’zi)

UCHINCHI KO’RINISH

(Jannatdagi g’oyat go’zal qasr. Bu qasrda Ona istiqomat qiladi. Atrofida farishtalar)

TO’RTINCHI KO’RINISH

(Do’zax darvozasi oldidagi ulkan handaq. O’spirin va Qariya pachakilashib turgan holat)

BESHINCHI KO’RINISH

Yigit

(do’zax qopqasi oldida)

Ushbu tasvirlarda o’quvchida dostonga olib kiradigan umumiy kayfiyat paydo bo’ladi.

“O’zbek tilining izohli lug’ati”da to‘qimaga shunday ta’rif beriladi: “Badiiy asarning asosiy mazmunini va undagi qahramonlarning xarakterini ochib beradigan, o’zaro uzviy bog’langan voqeа-hodisalar majmui”. Ikkinchi ma’nosи: “To‘qib chiqarilgan voqeа, xarakter va hokazo”. Uydirmaga berilgan ta’rif: “O’ylab, to‘qib chiqarilgan, yolg’on...”

E’tibor qaratadigan bo’lsak, ijodkor badiiy to‘qimadan foydalanishga haqli, chunki badiiy to‘qima muallifning xayoloti mevasi, ammo badiiy to‘qimani qanday vaziyatda bera olishi katta ahamiyatga ega. Biz “Jannatga yo’l” dostonidagi voqealarni sodir bo’lish zamoni va joyiga ijodkor fantziysi sifatida qarasak, qahramonlar boshidan kechirgan voqealar real hayotga asoslanadi, ya’ni dostonning tub mohiyatida hayotiy haqiqat yotadi. Faqat muallif ushbu haqiqatni, fojeani o’quvchiga yetkazish vositasi sifatida badiiy to‘qimadan foydalanadi. “Jannatga yo’l” dostonining bosh qahramoni Yigit. Shoир bejizga bu qahramonni tanlamagan.

Birinchidan, Yigit obrazida ijodkor “men”i gavdalantirilgan, unga isyonkor va jo’shqin ruh bera olgan. Yigit – shoир, u bir qizaloqni toshqindan qutqaraman deb halok bo’ladi.Ijodkor Yigit qiyofasida qalbida ayta omay, qalamga olinmay qolgan dardlarini, yozishni istamasa-da, yozishga majbur bo’lgan mavzular haqida ochiq yozadi. Yigitning Tarozibon bilan bo’lgan suhbatiga e’tibor qaratadigan bo’lsak bunga guvoh bo’lamiz.

*Ilohiy dil bergen edi senga xudoyim,
Qulq sol deb sho'rliklarning ohi-vohiga.
Sen-chi, samo shu'lasini kuylading doim,
She'rlar bitding yulduzlarga,gulga , ohuga.*

Diqqat bilan o'qiladigan bo'lsa, shoir o'zi yashagan paytdagi adolatsizliklar, siyosiy ziddiyatlar, sovet ittifoqi uchun, degan g'oya bilan yashagan, mustamlaka zulmidan horib charchagan xalqning dardiga malham bo'lishni o'z burchi sifatida ta'riflayotganiga guvoh bo'lamiz. Yigit ayni shu vazifani uddalay olmagani uchun arosat dashtiga jo'natiladi.

Badiiy asarning tahlili jarayonida qahramonlarning psixologiyasiga murojaat qilmaslikning iloji yo'q. Chunki isonni ichki mayllar boshqaradi.Psixologiyadan ma'lumki insonni ong osti kechinmalari mavjud bo'ladi. Taniqli psixologlarni biri Karl Yung insonning ong osti kechinmalarini inson bolaligidan toki hozirgi kuniga qadar olgan ruhiy va hissiy zarbalar, botiniy taassurotlar bilan bog'laydi. Shu ma'noda inson umri davomida uchraydiga odamlarning hech biri bo'lgan uchrashuv tasodif bo'lmaydi. U o'zi sezmagan holda o'ziga yaqin ruhiyatda bo'lgan odamlarni o'ziga tortadi. Endi doston voqealari boshlanga joy va Tarozibon obrazi haqida to'xtaladigan bo'lsak, nima uchun Tarozibon yigit bilan hamdard bo'ldi, vaholangki, uning o'zi bu 10000- odam ekanligini aytib o'tadi, shunday ekan nima uchun unda yigitga nisbatan iliqlik paydo bo'ld ?

Tarozibon- ramziy ma'noda olingan. Ijodkor ushbu obrazni insonning o'z vijdoni sifatida yaratadi.

*Savob degan narsa axir tasodif emas,
Yetmish ikki tomirdan u oqib kelgusi,
Yaxshi odam yaxshiligin anglamay qolmas,
U vijdonni bir vazifa deya bilgusi.*

Ushbu jumlalar yuqorida keltirgan fikrlarni tasdiqlaydi, har kim , har doim qilgan ishalarini sarhisob qilib borishi kerak. Kimgadir qilingan yaxshilik beg'araz, hech qanday manfaatlarni ko'zlamasdan , shunchaki insoniylik burchi sifatida qilinishi lozimligiga ishora qilinmoqda.

Doston voqealari Tarozibon huzurida boshlanadi. Asosiy voqealar tuguni ham shu yerda boshlanadi. Su ma'noda ushbu qahramonning voqealar rivojida ahamiyat katta. Tarozibon sho'ro davrida xalqning mudroq bosgan ongini, zaiflshib qolgan qalbini uyg'otishga qaratilgan, ziylolilarni birdamlikka chorlovchi qahramon kontekstida namoyon bo'ladi.

*Ammo endi foydasi yo'q-ku,
O'z umrini yashab bo'lgan endi odamzot.
Achinaman senga, inim, inimsan chunki-
Gar qanoting bo'lmasa-da sen ham parizod.*

*Qodir egam muhiblarin siylagan mahal
Shoirlarni kiritmishdir pari qavmiga.
Farishtalar til farqlamas, millat ham azal,
Ular faqat quloq tutgay ko'ngil mayliga*

Inson adabiyot uchun ham, psixologiya usun ham jumboq edi. Har ikkisi ham bu jumboqni ochishga harakat qilardi. XX asr boshiga kelib, adabiyot ham, Freyd ham bitta savolga “Inson kim? Qanday mavjudot? Botini qanday? Mohiyati qayerda? Uning istak-xohishlarining manbasi qayerda?!” degan savollarga javob izlashdi va birgalikda, Freyd o‘z fikrlarini asoslash uchun Aristotel, Shopengauer, Gyote, Shekspir kabi o‘nlab adiblarning asarlariga suyandi, qarashlariga, obrazlariga, adabiy majozlarga tayandi. Tabiiyki, adabiyot ham keyinchalik Freydga tayanib, inson jumbog‘iga javob topishga urindi. Nazr Eshonqul O’zining “Ijod falsafasi” asarida keltirgan ushbi fikrlar “jannatga yo’l” dostoni qahramonlariga ham yakunigacha hamroh bo’ladi. Ushbu dramatik dostonda jami 14 ta kaeta va kichik qahramonlar ishtirok etgan bo’lib, Nazar Eshonqul keltirgan savollar bu qahramonlarning ham taqdirlarida aks etadi. Oxirgi ko’rinishda do’zax darvozasi oldida qariya bilan o’pirin yigitni suhbatini eslaylik. Ular faqat talantliman, talantlisan qabilida tortishayotganga o’xshab ko’rinsa-da, aslida ular xasad degan illat bilan kasallangan zamondoshlari aksini ko’rsatuvchi oyna bo’lib xizmat qilgan.

*Iloji yo’q, navbat bilan tortishamiz biz,
Tangri bizga shul jazoni ko’ribdi ravo.
Kimdir aytib ketgan ekan: hasad degan dard
Eng avvalo o’z egasin kemirgay deb. Rost!*

Shoirning yutug’i har bir qahramonga o’ziga xos xarakter bera olgan. Biz badiiy adabiyotga hayotning iniko’si sifatida qarasak, undagi qahramonlar shunchaki hayotdagi jo’n qiyofalar emas, balki muallif tomonidan sayqallangan, ideallashtirilgan, oziga xos badiiy manzaralar bilan jilolantirilgan tasavvur hosilasidir.

Dostondagi eng asosiy qahramonlar sifatida Ota va Ona obrazlarini keltirishimiz mumkin. Shu o’rinda bir narsani aytib o’tish joiz, shoir ushqu qiyofalarni jonlantirayotganda hech bir badiiy bo’yoq dorlikdan foydalanmagan, aslida foydalanishning iloji yo’q. Chunki bu dunyoda ota- ona maqomiga erishgan har bir inson o’ziga xos fidoiylik va jasorat egasi va ularning har birining kata- kata doston bo’lishga arziydigani qismatlari bor. Shoir yigitning ota- onasida ham shunday. Tarozibon ikki paysa savob yetmagani uchun bejizga yigitning ota-onasining yoniga jo’natmaydi. Chunki bu dunyoda farzandi uchun bor-budini , kerak bo’lsa jonini berishga qodir bo’lgan ikkita zot bor. Biri-ota, ikkinchisi onadir.

*Har kimdan ham so’ramassan, albatta, savob,
Sen deb kim ham rohatidan kechar, ukajon.
Sen Otangni va onangni ko’rajaksan shu tob.*

*Ha , ko ’rasan, lekin shuni unutma aslo,
Ahvolingni bayon qilgin farzandlarga xos.
Zora ular iltijosin tinglab taolo,
Jannat yo ’lin sen uchun ham ko ’rsatsa ro ’y-rost.*

Yigit arosat dashtida otasi bilan ko’rishadi. Juda uzoq vaqt yomg’ir kutib qaqragan yerlar yomg’ir yog’ganida ilk tomchilarni qanchalik intiqlik bilan simirsa ota - bola ham bu uchrashuvning ilk lahzalarida shunday hayajon tuyadilar

*Ota, otajon!
O, Ollohim, boshimizga osmonni tashla,
Qaytdimi-a, qaytmas deya nom olgan zamон!*

Ota- onalik mehrini o’lchaydigan hech bir me’zon, uni ta’rifini tugal keltiradigan birorta so’z yo’qdir bu olamda. Zaiflikdan boshlab farzandning joni bilan joni tutashib ketadigan zotlar so’nggi nafasida ham faqat farzandining dard-u tashvishlari haqida o’ylaydi. Yigit yurak-yuragidan o’zi uchun kerak bo’lgan ikki paysa savobni agar so’rasa, jaannatdan vozkechib bo’lsa ham ota-onasi berishiga zarracha shubha qilmas edi, lekin u farzandlik mehri, ota- onasiga bo’lgan kuchli muhabbat sabab ularni janntdan mahrum qilmaslikka o’ziga so’z bergen edi.

*Ne qilayin, ayblamasman Olloh dargohin,
Garchand sening qismatingdan chekmoqdamан oh,
Bor ekan-da, men bilmagan og’ir gunohing,
O’g’lim, axir pok edingku, nur kabi, e voh!
Sendan rozi yurar edi kattayu kichik.
Goho kelib roziligin menga aytardi.
Nechun endi do ’zaxisan nimaga nechuk?
Qaysi nokas gunohini senga ag ’dardi?*

Ota-Ona uchun farzandi eng yaxshi har doim, Otaning so’zlariga nazar soladigan bo’lsak, u farzandining pok ekanligiga, do’zaxga tushushini shunchaki bir tasodif, anglashilmovchilik ekanligiga ishora qilmoqda.

Ijodkor katta bir mahorat bilan ota- va onaning savoblari uchma – uch keltirib qo’ymaydi. Sababi o’zi shundoq ham yetmay qolgan savobni o’z rohatidan kechib , farzandlariga berishga tayyor. Shunga mos ravishda o’g’il ham uyg’oq qalb egasi va u hech qachon ota-onasini bu saodatdan bebahra qila olmaydi.

*Yetti qavat yer qa ’riga tiqsa ham tangri
Man dadamni jannatdan hech qilmasman judo.
Kechiringiz dadajonim, bois safarim-
Vaslingizga kelgan edim , xayr , alvido!*

Shoir ijodida Ona timsoli o’ziga xos o’rin tutadi. “Onajon”she’rida ham onasidan ayrilgan farzand qiyofasini juda yorqin bo’yoqlarda tasvirlaydi, har bir misrasida

ijodkorning onasiga bo’lgan sog’inchi bo’y ko’rsataveradi. Biz yuqorida dard ijodkorni toplashi haqida fikr bildirgan edik. Shoirning onasiga bo’lgan muhabbat, sog’inchi har bir misrdadn tomib turadi. Dostonning uchinchi ko’rinishida yigit onasi bilan uchrashadi. Onasi qarshisiga niqobda kirayotgan yigit kirishdan avval uning taftini his qiladi.

Yigit

*Oh, u qanday zot ekanki, o’rtar sabotni,
Niqobda ham o’tayotir uning ziyyosi.*

Farishta

*U-onadir, bandalarning ibtidosidir,
Unga hurmat joiz erur ikki olamda.
Uning mehri samovotning ilk sadosidir.
Shu boisdan g’alat hislar qo’zg’ar odamda.*

Ijodkor ona qiyofasida tiriklik ibtidosini aks ettirish barobarida, uning mehri, haroratiga butun koinotda hech bir ziyo teng kelolmasligiga urg’u beradi.

*Savob kerak barchaga ham halol, befirib,
Mana, mening savoblarim uchma-uch ekan.
Lekin uni ko’rsaydim gar, savobim berib
Do’zaxga ham ketar edim ,kechirsin egam.*

Farzand sog’inchidan halovat topa olmagan onaning iltijosi bu. Eng oliv saodatga erishgan bo’lsa-da, ona qalbi bilan farzandini izlayapti, xotirjam bo’lolmayapti. Onaning saodati- farzandida, uning, baxti- kamolidadir. Ona qiyofasini chizayotganda ijodkorlar uchun bir yengillik bo’ladi, ular aks ettirgan qiyofada mehr jilolanib turadi. Bu chizgida soxtalik bo’lmaydi, chunki onani jonlantirar ekan ijodkor ko’z oldida birinchi navbatda onasi gavdalanadi.

*Mahbus kabi turaverib ushbu qasrda
Balki fahmim o’tmaslashgan, toliqqan ruhim.
Kim bo’ldi bu ajib odam? Kim u aslida?
Shunchaki bir o’tkinchimi?Kim bo’ldi u? Kim?
Nimagadr tanitmadi o’zin har qalay,
Yuragida dardi to’la. Alamzada zot.
Murojaat qildi menga ona deb atay.
Yongan dilim qayta boshdan o’rtadi hayhot.*

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ijodkor o’zi yaratayotgan har bir asarning asosini, aks ettirmoqchi bo’lgan g’oyalarni o’zi yashab turgan davr bilan bog’laydi. Lekin uni o’quvchiga taqdim qilar ekan, unning g’oyaviy kuchini, hissiy quvvatini oshirish

maqsadida badiiy to’qimadan foydalanadi. Asarning yakuniga e’tibor qaratadigan bo’lsak,

*Hikoyatdan murod shulkim, ulug’, muxtaram
Do’sti sodiq nasib etsin har kimga har on,
Jannat ato qilajakman ikkingizga ham!
Jannat yo’li mana, Sizga ochiq, charog’on.*

Muallif butun dostonning g’oyaviy kuchini asar yakuniga singdira olgan, bunga fantaziya yoki badiiy to’qima sifatida baho berib bo’lmaydi, Chunki, muallif ulug’lagan insoniy tuy’g’ular hamma zamon uchun ham birday ahamiyatli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Oripov. Tanlangan asarlar. G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. T.,2019.
2. D.Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. “O’qituvchi” nashriyoti. T., 2018.